

## **“KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI”**

*Utkirova Jasmina Jasur qizi,*

*Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti*

*e-mail: @utkirovajasmina3@gmail.com*

**Annotation.** Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ta’lim olish huquqini ta’minlashdagi roli va ta’lim tizimini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatda ta’lim tizimining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar – Germaniya, Yaponiya va Finlandiya tajribalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot metodlari sifatida huquqiy va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, ta’lim huquqi, konstitutsiyaviy kafolatlar, umumiy ta’lim, ta’lim tizimi, bilim olish erkinligi, islohotlar, ta’limdagi islohotlar.

**Abstract.** This scientific article analyzes the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in ensuring the right to education and its importance in the development of the education system. It will also consider the experience of foreign countries - Germany, Japan and Finland - in strengthening the constitutional foundations of the education system in the country. The methods of legal and comparative analysis were used as research methods.

**Keywords:** Constitution, right to education, constitutional guarantees, general education, education system, freedom of education, reforms, education reforms.

**Аннотация.** В данной научной статье анализируется роль Конституции Республики Узбекистан в обеспечении права на образование и ее значение в развитии системы образования. Также будет рассмотрен опыт зарубежных стран – Германии, Японии и Финляндии – в укреплении конституционных основ системы образования в стране. В качестве методов исследования использовались методы юридического и сравнительного анализа.

**Ключевые слова:** Конституция, право на образование, конституционные гарантии, общее образование, система образования, свобода образования, реформы, реформы образования.

**Kirish.** Ta’lim har bir insonning fundamental huquqi sifatida jamiyat barqarorligi va farovonligini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi kafolatlangan bo‘lib, bu esa davlatning yosh avlodni tarbiyalash, bilim berish va ularning intellektual salohiyatini oshirishga bo‘lgan majburiyatini aks ettiradi nafaqat individual darajada, balki jamiyatning umumiy taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega.

Ta’lim inson huquq va erkinliklarini ta’minalashdagi muhim vosita bo‘lib, boshlang‘ich ta’lim bepul bo‘lishi, ta’lim imkoniyatlari hamma uchun teng bo‘lishi va boshqa xalqlar hamda madaniyatlar bilan tanishish imkoniyatlarini yarata olishi lozim<sup>1</sup>. Mamlakatimizda ta’lim olish huquqi bosh qomusimiz bilan birgalikda “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunosti hujjatlar bilan kafolatlangani jamiyatda tenglikni ta’minalash va barcha fuqarolarga teng imkoniyatlar yaratishning asosi hisoblanadi. Ta’limni kengaytirish orqali davlat o‘z fuqarolarining asosiy huquqlarini amalga oshirishni ta’minalaydi.

**Material va metodlar.** Ushbu tadqiqot ishi ta’limni rivojlantirish va ta’lim olish huquqining konstitutsion kafolatlarini belgilash bo‘yicha yozilgan ishlarni o‘qish va tahlil qilishga qaratilgan. Bunda Asosiy qonun, qonunlar va qonunosti hujjatlar, Google Scholar, Scopus, Web of Science bazasida mavjud mavzu doirasidagi jurnal maqolalaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-moddasiga binoan “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzlucksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minalaydi”<sup>2</sup>. Ushbu moddada nafaqat davlatning majburiyatları yoritiladi, balki har bir insonning ta’lim olishga bo‘lgan uzviy huquqini ham ta’minalaydi. Bu huquq shaxsning intellektual, madaniy va kasbiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi hamda jamiyat taraqqiyotining poydevorini mustahkamlaydi. Mazkur modda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining konstitutsiyaviy asosi hisoblanadi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida ta’lim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu huquq ta’lim sohasida davlatning nazoratini o‘rnatish, bilim olish uchun barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish va har bir fuqaroning intellektual salohiyatini rivojlantirishni ta’minalashga qaratilgan. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab ta’lim sifatiga bo‘lgan talablar oshib bormoqda. O‘zbekistonda ham ta’lim tizimi jadal rivojlanmoqda. Bu borada ko‘plab islohotlar, xususan, ta’lim tizimini raqamlashtirish, xalqaro tajribalar asosida yangilanishlar joriy etilmoqda. O‘zbekistonda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar so‘nggi yillarda juda sezilarli bo‘ldi. O‘zbekistonda ta’lim tizimi bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar juda keng qamrovli. Prezidentimizning ta’lim tizimiga oid qilgan tashabbuslari, jumladan, maktablar va universitetlarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish, shuningdek, ta’lim sifatini yaxshilash uchun davlat byudjetidan ko‘proq mablag‘ ajratish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hukumati ta’lim

<sup>1</sup> Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi, 1948-yil 10-dekabr, 26-modda.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yil 8-dekabr, 50-modda

tizimining zamonaviy talablarga moslashishi uchun xalqaro tajribalarni o'rganib, turli davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda.

Maqolada Hindiston Konstitutsiyasi, Turkiya va Polshada ta'lim olish huquqi kabi ilg'or ta'lim tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarning muvaffaqiyatlari hamda qiyinchiliklari taqqoslanadi. Hindiston davlatining ta'lim sohasidagi investitsiyalari, maxsus grantlar va qishloq joylarda ta'lim tizimini yaxshilashga oid tadbirlari bilan bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan. Hindiston Asosiy qonunining 21-A moddasida: "Davlat 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun bepul va majburiy ta'lim olish huquqini ta'minlaydi, bu qonun bilan belgilangan tarzda amalgalashiriladi"<sup>3</sup>, - deyilgan. Hindiston Konstitutsiyasi ta'limni ijtimoiy tenglikni ta'minlash va inson salohiyatini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqadi. 21-A modda orqali ta'lim olish huquqi asosiy huquq sifatida belgilangan bo'lib, davlatdan barcha bolalar uchun bepul va majburiy ta'limni ta'minlash talab qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy zaif guruuhlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgan va madaniy xilma-xillikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Turkiya Respublikasining Konstitutsiyasida ham ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Unda: "Har bir fuqaro ta'lim olish huquqiga ega. Boshlang'ich ta'lim davlat tomonidan bepul ta'minlanadi va majburiy hisoblanadi"<sup>4</sup> -deyilgan. Polsha Respublikasi Konstitutsiyasida: "Har bir fuqaro ta'lim olish huquqiga ega. Boshlang'ich va o'rta ta'lim bepul va majburiydir. Davlat oliy ta'limning bepul bo'lishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi"<sup>5</sup>- degan normalarning kiritilganligi ushbu mamlakatlarda ta'limning jamiyatning rivojlanishida, inson huquqlarining himoyasi va milliy birdamlikni ta'minlash vosita ekanligini ida muhim isbotlaydi.

Quyidagi jadvalda ayrim rivojlangan davlatlarning Konstitutsiyasida ta'lim tizimiga oid berilgan moddalar O'zbekiston Respublikasi Kosntitusiyasining ta'limga oid huquqiy me'yorlari bilan solishtirilgan<sup>6</sup>:

### **1-jadval**

#### **Mamlakatlar Kosntitusiyalaridagi ta'lim tizimiga oid moddalar tahlili**

Davlat nomi	Konstitutsiya moddalar	Farqlar	O'xshash tomonlar
Yaponiya	41-modda "Har bir fuqaro ta'lim olish huquqiga ega. Davlat ta'lim olishni bepul taqdim etadi va ta'lim tizimining rivojlanishini	Yaponianing ta'lim tizimi yuqori darajada ixtisoslashgan bo'lib, yuqori sifatli boshlang'ich va o'rta ta'lim bilan bir qatorda o'ziga xos ko'plab	Yaponianing va O'zbekistonning konstitutsiyasida ta'lim olish huquqi kafolatlanadi. Har ikki mamlakatda ham fuqarolar uchun ta'lim olish huquqi

<sup>3</sup> Hindiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2002-yil, 21-A modda

<sup>4</sup> Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi, 1982-yil, 42-modda

<sup>5</sup> Polsha Respublikasi Konstitutsiyasi, 1997-yil, 70-modda

<sup>6</sup> Turli adabiyotlardan foydalangan holda muallif ishlansmasi

	ta'minlashga mas'uldir.” <sup>7</sup>	ixtisoslashgan maktablar va universitetlar mavjud. O‘zbekistonda ta’lim tizimi yangilanish jarayonida bo‘lib, bir qancha yangilanishlar amalga oshirilgan.	asosiy huquqlar sifatida tan olinadi.
Germaniya	7-modda “Ta’lim, davlat nazorati ostida bo‘lishi kerak. Davlat boshlang‘ich ta’limni bepul taqdim etishi va ta’limga teng imkoniyatlarni yaratishi zarur. Ta’limda dinning roli ham ko‘rib chiqiladi, lekin ta’lim tizimi mustaqil bo‘lishi kerak.” <sup>8</sup>	Germaniyada ta’lim tizimi davlat tomonidan nazorat qilinadi, ammo ta’limda diniy ta’limning o‘rni va roli ham hisobga olinadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ta’limning din bilan aloqasi aniq belgilangan emas va ta’lim tizimi mustaqil bo‘lishi uchun davlat mas’uliyatini ta’minlashga e’tibor qaratilgan.	Germaniya va O‘zbekistonda ham fuqarolarning ta’lim olish huquqi kafolatlanadi. Har ikki mamlakatda ham ta’lim olish huquqi asosiy inson huquqlaridan biri sifatida tan olinadi. Ta’lim tizimining rivojlanishi va ta’minlanishi davlat tomonidan amalga oshiriladi. Davlat ta’limni muvofiqlashtirish, nazorat qilish va rivojlantirishda mas’uldir.
Finlandiya	16-modda “Har kim bepul umumiy ta’lim olish huquqiga ega. Majburiy ta’lim olishga doir qoidalar qonun bilan belgilanadi.” <sup>9</sup>	Finlandiya ta’lim tizimi ko‘proq markazlashtiril-gan bo‘lib, davlat ta’limni rivojlantirishga mas’ul.	Ikkala mamlakatda ham ta’lim olish huquqi kafolatlanadi hamda davlat ta’lim tizimini ta’minlash, rivojlantirishga mas’uldir.

**Xulosa va takliflar.** Ta’kidlashimiz mumkinki, har bir mamlakatda ta’limni rivojlantirish uchun aniq va qat’iy huquqiy asoslar mavjud. Tadqiqot ishida Germaniya, Finlandiya, Yaponiya, Hindiston, Turkiya kabi ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarning Konstitutsiyasida ham ta’lim sohasiga alohida urg‘u beradi. Jumladan, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham konstitutsiyaviy modda borligi va bu tizimning rivojlanishi uchun zaruriy qonunchilik choralar ishlab chiqilganligini ta’kidlash mumkin. Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimlarining yanada keng qamrovli va chuqurroq yondashuvlari, huquqiy asoslarini hisobga olib, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham foydalanish ushbu sohadagi rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

<sup>7</sup> Yaponiya Konstitutsiyasi, 1947-yil, 41-modda

<sup>8</sup> Germaniya Konstitutsiyasi, 1949-yil, 7-modda

<sup>9</sup> Finlandiya Konstitutsiyasi, 1999-yil, 16-modda

Tadqiqot davomida aniqlangan farqlar va o‘xshashliklar qonuniy me’yorlarning ta’lim tizimidagi katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Finlandiya, Yaponiya va Germaniya kabi davlatlarning muvaffaqiyatlari tajribalarini O‘zbekiston ta’lim tizimida tatbiq etish orqali ta’lim tizimini yanada rivojlantirsa bo‘ladi. Bu, ayniqsa, o‘qituvchilarni tayyorlash, ta’limdagi innovatsiyalarni qo‘llash va ta’lim sifatini oshirishda samarali bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonda raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish va ta’limni onlayn shaklda olish imkoniyatlarini kengaytirish, shu bilan birga, yuqori texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish, global me’yorlarga mos ravishda, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish uchun xalqaro tajribalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1992-yil 8-dekabr
2. Hindiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2002-yil
3. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi, 1982-yil
4. Polsha Respublikasi Konstitutsiyasi, 1997-yil
5. Yaponiya Konstitutsiyasi, 1947-yil
6. Germaniya Konstitutsiyasi, 1949-yil
7. Finlandiya Konstitutsiyasi, 1999-yil
8. Google Scholar. Available at: <https://scholar.google.com>
9. <https://avlod.media/uz/hindistonda-nima-gap/> Hindistonda ta’lim tizimi
10. Scopus Database. Available at: <https://www.scopus.com>
11. Web of Science. Available at: <https://www.webofscience.com>
12. FAO (Food and Agriculture Organization). Available at: <https://www.fao.org>